

Toshkent davlat tibbiyot universiteti 1-son Oilaviy shifokorlik, jismoniy tarbiya, fuqarolar muhofazasi kafedrasining ZOOM orqali o'tkazilgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar bo'yicha Ma'rifat darsi

BAYONNOMASI № 14


01.12. 25 yil

Toshkent sh.


Qatnashganlar: Kafedra hodimlari va kafedrada tahsil olayotgan 6-kurs talabalari

Kun tartibi: "Mening huquqlarim" mavzusida Kelagak soati o'tkazish.

Eshitildi: Darsning kirish va asosiy qismlarida mavzuning siyosiy-ijtimoiy ahamiyati, Davlat rahbari tomonidan ayni mavzuga oid amalga oshirilayotgan sa'y-harakatlar bayon etildi.



Huquq – bu oddiy qonunlar majmuasi emas. Bu hayotimizdagi mustaqillik kaliti hisoblanadi. Tarixda ko'plab xalqlar aynan shu huquq va erkinlik uchun kurashgan. Mustaqillikka, o'z ovozigacha, o'z taqdirini belgilash huquqiga erishgan. Huquq – bu inson sha'ni, erkinligi va adolatli hayotining kafolati. O'z huquqini bilgan va majburiyatini bajargan fuqaro jamiyatning eng mustahkam tayanchi. Vatan – faqat davlat rahbariniki yoki hokimiyatniki emas, balki hammamizniki. Har bir fuqaro o'z huquqlarini bilib, ulardan to'g'ri foydalansa va majburiyatini ado etsa, jamiyat taraqqiyoti ta'minlanadi.



Talabalarga inson huquqlari va erkinliklarining mazmuni, ularning shaxsiy hayotdagi o'zni va jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyatini sodda, hayotiy misollar asosida tushuntirildi. Huquq va majburiyat uyg'unligini anglatish, o'z huquqlaridan oqilona foydalanish va mas'uliyatli fuqaro bo'lishga o'rgatadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, qonunlari hamda “Yangi O‘zbekiston” islohotlari doirasida inson huquqlarini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni talabalarga yoritib berildi. Talabalarda qonunga hurmat ruhida yashash, huquqiy madaniyatni rivojlantirish, Vatanga sadoqatli va faol fuqaro sifatida shakllanish motivatsiyasi kuchaytirildi.

Bugun biz “huquq orqali o‘z hayotimizni boshqarishni o‘rganamiz”. Chunki kuchli davlatni kuchli qonunlar emas, o‘z huquqini bilgan kuchli fuqarolar quradi.

Dars davomida talabalar O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarida belgilangan huquqiy normalar bilan tanishdilar. Shu orqali o‘z huquqlarini himoya qilish, qonunlarga hurmat ruhida yashash, mas’uliyatli fuqaro bo‘lish ko‘nikmalari mustahkamlandi.

Kafedra mudiri, t.f.d., prof.



Shamansurova E.A.

Ma’naviyat va ma’rifat ishlari

bo‘yicha mas’ul, ass.:



Shayxova M.I.